



SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI, VAZIFALARI VA INVESTITSIYA
MUHITI BILAN O'ZARO BOG'LQLIGI

Xudaybergenova Roza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0008-5671-0999

rozaakhmedovna011@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq siyosati tushunchasi va davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati muhokama qilinadi. Investitsiya muhiti jozibadorligi tushunchasi va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ko'rib chiqilgan. Soliq siyosati investitsion jozibadorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Maqolada soliq siyosati va investitsiya muhiti o'rtafigi o'zaro munosabatlar bo'yicha nazariy yondashuvlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soliq, soliq siyosati, investitsiya, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, raqobat, fiskal siyosat, soliq stavka, barqaror iqtisodiy o'sish.

СУЩНОСТЬ, ФУНКЦИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ И ЕЕ ВЗАИМОСВЯЗЬ С ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДОЙ

Xудайбергенова Роза

«Научные основы и проблемы развитие экономики Узбекистана»
научно-исследовательский центр при Ташкентском
государственном экономическом университете

Аннотация. В данной научной статье обсуждается концепция налоговой политики и ее значение как важного компонента государственной политики. Рассмотрено понятие привлекательности инвестиционного климата и внутренние и внешние факторы, на нее влияющие. Налоговая политика является одним из основных факторов инвестиционной привлекательности. В статье рассматриваются теоретические подходы к взаимосвязи налоговой политики и инвестиционного климата.

Ключевые слова: налог, налоговая политика, инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, конкуренция, фискальная политика, налоговая ставка, устойчивый экономический рост.

ESSENCE OF TAX POLICY, TASKS AND RELATIONSHIP WITH INVESTMENT CLIMATE

Xudaybergenova Roza

“Scientific Foundations and Problems of Development of the Economy
of Uzbekistan” research center under the Tashkent State University of Economics

Abstract. This scientific article discusses the concept of tax policy and its importance as an important component of state policy. The concept of investment climate attractiveness and the internal and external factors influencing it are considered. Tax policy is one of the main factors of investment attractiveness. The article studies theoretical approaches to the relationship between tax policy and the investment climate.

Keywords: tax, tax policy, investment, investment climate, investment attractiveness, competition, fiscal policy, tax rate, sustainable economic growth.

Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar soliq siyosati samarali tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash sharoitida, soliq siyosati orqali investitsiyalar jalb qilishni oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, eng avvalo, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masala bu soliq siyosatining nazariy-amaliy mohiyati, uning vazifalari hamda investitsiya muhiti bilan bog'liqligi to'g'risida umumiy xulosaga kelish hisoblanadi. Chunki mazkur masalalarga anqlik kiritmasdan turib, soliq siyosati orqali iqtisodiyotni investitsion jozibadorligini oshirish xususida keng mulohazalar yuritish bir qancha noaniqliklar yuzaga keltirishi mumkin.

Soliq siyosati va investitsiya muhitining o'zaro bog'liqligi ayniqsa zamonaviy iqtisodiyotda sezilarli ahamiyatga ega. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, davlatning soliq siyosati to'g'risida olib boriladigan islohotlar, soliq tizimi, investitsion imtiyozlar va soliq yuklamalarining o'zgartirilishi investorlar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va ularga yanada ko'proq daromad olish imkonini yaratadi. Shunday qilib, soliq siyosatining samarali boshqarilishi investitsiya muhitining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ma'lumki, davlat iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiyadolat va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan biri soliq siyosatidir. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati va uning davlat siyosatidagi ahamiyatining bugungi kundagi asosiy yo'nalishlarini tahlil qilganimizda, albatta, iqtisodchilarning "soliq siyosati" tushunchasiga bergan ta'riflariga tayanamiz.

Karp (2001) soliq siyosati davlatning umumiy moliya siyosatining o'rta va uzoq muddatli ajralmas qismidir va soliqqa tortish, soliq mexanizmi va soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi.

Barulin va boshqalar (2004) fikricha, soliq siyosati davlat tomonidan umumiqtisodiy siyosat doirasida soliq jarayonlarini boshqarish sohasida strategik va taktik chora-tadbirlar kompleksini ifodalaydi va ushbu bosqichda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim natijalarga erishish uchun soliq-byudjetini tartibga solish va nazorat qilish vazifalarini maksimal darajada amalga oshirishga yo'naltirilgan ta'siridir.

Radchenko (2005), soliq siyosati – davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, mamlakat soliq tizimini shakllantirish uchun iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy choralar majmui, deb hisoblaydi.

Serdyukov va boshqalar (2005) esa davlat soliq siyosati – davlatning umumiy iqtisodiy strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi va davlat organlarining faoliyatida amalga oshirilayotgan, ma'lum bir davlatning tarixiy rivojlanishini tegishli bosqichida manfaatlari va maqsadlarini hisobga olgan holda soliqqa tortish masalalarini har tomonlama hal etishga qaratilgan deb ta'kidlaydi.

Panskov (2006) ning fikricha, soliq siyosati davlat va jamiyatning muayyan ijtimoiy guruhlarini moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun soliq tizimini shakllantirish bo'yicha davlatning iqtisodiy, moliyaviy, va huquqiy choralar majmuidir.

Valinurov (2010) davlat soliq siyosatiga davlat va mahalliy hokimiyat organlarining tabiatan majburiy-shaffof bo'lgan va davlatning umumiqtisodiy strategiyasining bir qismi bo'lgan va ma'lum bir davlatning tarixiy manfaatlari va maqsadlariga muvofiq soliqqa tortish masalalarini kompleks hal qilishni nazarda tutuvchi tadbirlar tizimi deb ta'rif bergen.

Isayev (2023) fikriga ko'ra, soliq siyosati – davlatning ijtimoiy iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u mamlakatning milliy boyliklarini to'plash va oqilonan foydalanishini rag'batlantiradigan, iqtisodiyot va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishga yordam beradigan va shu bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydigan soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan siyosat hisoblanadi.

Shuningdek, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti shunday ta'rif beradi: "soliq siyosati – davlatning ijtimoiy iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan daromad bilan ta'minlash va soliq tizimining inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini kuchaytirish o'rtaida muvozanat saqlashga qaratilgan siyosatdir".

Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagicha ta'rif shakllantirishimiz mumkin: "Soliq siyosati – davlatning asosiy strategik sohalaridan biri bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni moliyaviy hal etishga qaratilgan hamda byudjet daromadlarini to'plash, ularni taqsimlash va nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir".

Biz investitsion jozibadorlikni davlat, mintaqaviy, tarmoqlar, tashkilotlar darajasida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Investitsion jozibadorlik tushunchasini konseptual talqin qilish muammolariga bag'ishlangan yetarlicha iqtisodiy adabiyotlar, maqolalar va monografiyalar mavjud. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ularda umumiylilik jihatni aks etmaydi.

Royzman va Grishinalar (1998) investitsion jozibadorlik deganda, asosiy kapitalga investitsiyalarning potensial to'lov qobiliyatini ta'minlovchi turli xil obyektiv xususiyatlar, vosita va imkoniyatlarni tushunadilar.

Valinurova va Kazakovalar (2010) ta'rifiga ko'ra, investitsion jozibadorlik – investitsiyalar potensial samaradorligiga xizmat qiluvchi obyektiv jihatlar, imkoniyatlardir.

Gilyarovskaya (2012) investitsion jozibadorlikga, xususiy va qarz kapitalidan samarali foydalanishni baholash va ularning to'lovga layoqatliligi va likvidlilagini tahlil qilishdir deb ta'rif bergen.

Blank (2013) fikriga ko'ra, investitsion jozibadorlik potensial investor nuqtai nazaridan olingen umumiylar tushuncha bo'lib, investitsiya uchun muayyan sohalarni investitsiyalashning afzalliklari va kamchiliklarini ifodalaydi.

Umumiy qilib aytganda, investitsiyaviy jozibadorlik deganda, mamlakat, tarmoq yoki korxona misolida investitsiyalarining daromadliligi, samaradorliligi, rivojlanish darajasi va investitsiya riski doirasida baholanishi tushuniladi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtida ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zahiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, valyuta siyosati, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolada ilmiy abstaksiyalash, deduksiya, induksiya, monografik kuzatuv, guruhlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Shubhasiz, soliq siyosatining fiskal maqsadi har doim ustun bo'lib kelgan va asosiy shu bo'lib qoladi. Boshqa maqsadlar, garchi davlat uchun juda muhim bo'lsa-da, ular ikkinchi darajali xususiyatga ega. Buning sababi shundaki, fiskal funksiya davlatning asosiy tegishli siyosatidir. Soliq siyosatining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, tashqi maqsadlarini amalga oshirish usullaridan biri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita usul hisoblanadi.

Soliq siyosati maqsadlarida shuni alohida e'tiborga olish lozimki, maqsadlardan biri – iqtisodiyotni tartibga solishni ta'minlash, iqtisodiyotni barqaror o'sishiga sharoit yaratib berish, umumtakror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf etish va asosiy

kapitalga investitsiyalar jalg qilishni rag'batlantirish – bugungi kundagi har bir davlat uchun muhim vazifalardan hisoblanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar jalg qilish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish, shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishimiz mumkin. Tabiiyki, bu borada davlatimiz "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga oshirish va shu maqsadda aholi farovonlik darajasini oshirish ko'zda tutilgan. Bu masalada bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. Soliq siyosatining asosiy maqsadlari

Investitsiya muhitini ta'riflashda va uning holatiga baho berishda quyidagilarni ham inobatga olish zarurdir:

- jami ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yoki kamayishi; milliy daromadning taqsimlanishi; jamg'arma va iste'mol munosabatlarining o'zgarishi; xususiylashtirish jarayonlarining borishi; ma'muriy yo'l bilan investitsiya faoliyatini tartibga solishning holati; alohida investitsiya bozorlarining, shu jumladan, fond va pul bozorlarining taraqqiyoti;

- investitsiya iqlimiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish. Bu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq: hududning iqtisodiy salohiyati, ya'ni mintaqaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi; ishlab chiqarish va investitsiyalarni yo'lga qo'yish uchun bo'sh yerlearning mavjudligi; mehnat va energiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi; ilmiy-texnikaviy salohiyatning rivojlanganlik darajasi; olib borilayotgan umumiy xo'jalik yuritish shart-sharoitlari, ya'ni ekologik holat, moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganligi; tugallanmagan qurilishlarning hajmi; asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi; uy-joy qurilishi sohasining taraqqiy etganligi;

- mintaqada bozor muhitining tarkib topganligi, ya'ni to'laqonli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, xususiy lashtirishning investitsiya jarayoniga ta'siri, inflyatsiya darajasi va ta'siri, aholining investitsiya faoliyatiga jalb etilish darajasi, tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi, xo'jaliklararo aloqalarning faollik darajasi, eksport imkoniyatlari, xorijiy kapitalning mavjudlik darajasi;

- siyosiy omillar, ya'ni aholining mintaqasi yoki mamlakat hokimiyat organlariga ishonchi darajasi, mintaqasi rahbariyatining markaziy davlat rahbariyati bilan munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik darajasi, milliy, diniy munosabatlarning ahvoli;

- ijtimoiy va madaniy omillar, ya'ni aholi hayot darajasi, maishiy-yashash sharoitlari, tibbiy xizmatning rivojlanganligi, ichkilikbozlik, giyohvandlik va shunga o'xshash salbiy odatlarning aholi o'rtasida tarqalganlik darajasi, jinoyatchilik darajasi, haqiqiy ish haqining o'rtacha miqdori, aholi ko'chishining investitsiya jarayoniga ta'siri, aholining o'z davlati va chet davlat tadbirkorlariga nisbatan munosabatlari, xorijlik mutaxassislarning ishlashi uchun shart-sharoitlar;

- tashkiliy-huquqiy omillar, ya'ni hokimiyatning o'z va chet davlat investorlariga munosabati, mintaqasi rahbariyatining investitsiyaga doir qonun va me'yorlarga amal qilishi; korxonani ro'yxatdan o'tkazish muammolari va uni hal qilish darajasi, ma'lumotlarni olish imkoniyatlari, mahalliy ma'muriyatning malakaviy darajasi, huquqni himoya qilish idoralari faoliyatining samaradorligi, tovarlarni, kapitalni va ishchi kuchini tashish va ko'chirish shart-sharoitlari, mahalliy tadbirkorlarning ishchanlik sifatlari va madaniy-ahloqiy darajasi;

- moliyaviy omillar, ya'ni mintaqasi byudjetining daromadlari, aholi jon boshiga byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, markaziy va mintaqasi byudjetlaridan moliyaviy mablag'lar olishning imkoniyatlari, xorij valyutasida kredit olish imkoniyatlari, bank krediti foizlari darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, har ming aholiga bank kreditlarining to'g'ri kelgan qismi, uzoq muddatli kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalaridagi salmog'i, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan omonatlar miqdori, zarar ko'rib ishlovchi korxonalarining umumiy korxonalar tarkibidagi ulushi va boshqalar.


Investitsion jozibadorlikni miqyoslilik darajasigaga ko'ra tahlil qilishimiz mumkin (2-rasm).

Piramidaning asosi mamlakatning investitsion jozibadorligi bo'lib, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanish majmuuni belgilaydi. Bu umuman mamlakatda investitsiya faoliyatining maqsadga muvofiqligini belgilaydigan umumlashtiruvchi kategoriya.

Mintaqaning investitsion jozibadorligi ekologik va iqtisodiy rivojlanishga va shuningdek, mintaqaning infratuzilmasi, uning soliq imtiyozlariga bog'liq.

Muayyan sohaning investitsion jozibadorligi ko'pincha o'sha sohaga oid siyosatga, shuningdek, alohida mintaqada yoki umuman mamlakatda sohani rivojlantirish istiqbollari va sohaning jozibadorligi ham bog'liq.

Piramidaning yuqori qismida alohida korxonaning investitsion jozibadorligi joylashgan. Ushbu qarorning sababi shundaki, investor birinchi navbatda sohaning, mintaqalar va mamlakatlar jozibadorligini baholaydi, moliyaviy resurslarni soha yoki mintaqaga istiqbolisiz investitsiya qilish maqsadga muvofiq emas. Mamlakat jozibadorligi omillariga ham e'tibor qaratish lozim. Shu asnoda, agar investor barcha 3 bosqichni o'z nuqtai nazaridan jozibali deb hisoblasa, muayyan korxonaga moliyaviy resurslarni sarflashga tayyor bo'ladi.




2-rasm. Investitsion jozibadorlik piramidasи

Investitsion jozibadorlik haqida gapirganda, risklarni ham unutmasligimiz zarur. Investitsion risklarni uch darajaga bo'lishimiz mumkin: makro daraja, o'rta daraja va mikro daraja.

Investitsion riskllarning makro darajasiga to'g'ridan-to'g'ri global holatlar kiradi. Ular dunyodagi yoki uning alohida mintaqalaridagi vaziyatga ta'sir qiladi. Bunday xavflarga global buzilishlar kiradi. Masalan, ta'minot zanjiri, qurolli mojarolar, pandemiya.

O'rtacha darajaga iqtisodiyotning ma'lum bir sohasi bilan bog'liq bo'lgan xatarlar kiradi va bu raqobat, innovatsion rivojlanish darajasi, mahsulot o'zgarishi kabilar.

Mikro darajaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga ta'sir qiladigan o'ziga xos loyiha risklari kiradi. Ushbu omillar turli xil moliyaviy tahlil vositalari yordamida baholanadi.



3-rasm. Investitsiya faoliyatini tarkibiy asoslari va ularning aloqadorligi

Investitsion jozibadorlik investitsiya faoliyatining asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'z navbatida boshqa tarkibiy qismlar bilan chambarchas bog'liqdir (3-rasm).

Har bir investor uchun samarali investitsiya faoliyatida ishtirok etishda investitsiya muhitining jozibadorligi, investitsion potensial yuqorililigi va investitsiya risklarining past darajasi muhim.

Soliq siyosati va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik uzoq vaqtdan beri ko'plab iqtisodchi olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. G'arb iqtisodchi olimlaridan S. Djankov va T.Ganser (2010) tadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Ular o'z tadqiqot ishlarida korporativ soliqlar va investitsiyalar o'zaro teskari bog'liqligini ko'rsatadi. Bu orqali ular davlat hukumati davlat soliq stavkalarini pasaytirish islohotlari bilan investitsiyalarni rag'batlantirish mumkinligini e'tirof etishadi. Lekin Lester va Olbertlar (2024) fikricha, bu tadqiqot mobaynida korporativ soliqlar mehnat investitsiyalariga ta'sirini aniqlashga kam e'tibor qaratilgan deb hisoblaydi. Soliq siyosatidagi o'zgarishlar mehnat investitsiyalariga ta'sir qiladimi yoki yo'qligini tushunish muhimligini, chunki firmaning mehnat investitsiyalarining optimal darajasidan chetga chiqish uning unumdoorligi, samaradorligi, raqobatdosh ustunligi va firma qiyamatiga zarar yetkazishi mumkinligini Becker (1962) o'z izlanishlarida ta'kidlab o'tgan.

Hassett va Hubbard(1992) ilmiy izlanishlari mobaynida, umumiy darajadagi tahsilga asoslangan dastlabki tadqiqotlar investitsiyalarning turli determinantlarining ta'sirini ajrata olmadi, chunki investitsiyalar va soliq siyosati kabi jami o'zgaruvchilar biznes tsikli davomida birgalikda harakat qilish tendentsiyasiga egaligini ta'kidlashdi. XX asr iqtisodchilaridan Cummins va boshqalar (1996) fikriga ko'ra, siyosatchilar investitsiya solig'i kreditlarini investitsiyalar kam deb hisoblanganda joriy etishlari va investitsiyalar yuqori deb qabul qilinganda ularni olib tashlashlari haqida xulosaga keladi. Bundan farqli o'laroq, ajratilgan darajada soliq siyosati alohida firmalarga turlicha ta'sir qiladi, chunki kapital zaxiralarining tarkibi barcha korxonalarda turlichadir. Shunday qilib, soliq siyosati tahlilning ushbu darajasida firmalarning investitsiya qarorlariga ekzogen bo'lishi mumkin.

Jahon banki tadqiqotlarida boshqaruv, soliqqa tortish va investitsiya muhiti o'rtasidagi bog'liqlik uchta asosiy masalada aks ettirilgan:

1. Samarali boshqaruv. Bunda soliq tizimini oqilona boshqaruv orqali tashkil etish ko'zda tutiladi. Samarali boshqaruvni tashkil etish orqali hukumatga ishonchni oshirish va siyosiy barqarorlikka erishish muhim. Adolatli hukumat orqali samarali soliq tizimini rivojlantirish mumkin.

2. Soliq tizimi qanchalik samarali tashkil etilgan bo'lsa, shunchalik samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Davlatlar qanday daromad olishlari sifatiga ularning boshqaruvi ta'sir qiladi. Sog'lom va adolatli mahalliy soliq tizimlari yaxshi boshqaruvga yordam beradi, chunki soliqni samarali oshirish soliq to'lovchi aholining roziligidini talab qiladi. Hukumat rahbarlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi siyosiy muzokaralar jarayoni fuqarolar nazarida soliqlar davlatni mustahkamlaydi. Davlatning soliqlarni yig'ish va boshqarish imkoniyatlarini oshiradi, hukumatning soliq to'lovchilar oldidagi javobgarligini kuchaytiradi. Davlat tomonidan keng iqtisodiy farovonlikni ta'minlash uchun rag'batga ega bo'lishga oid muzokaralar soliq to'lovchilar bilan davlat xarajatlari siyosatini munosabatini yaxshilashga olib keladi.

3. Boshqaruv va soliq tizimi investitsiya muhitini shakllantiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari ko'pincha tor soliq bazalariga va majburiy soliq yig'ishga bog'lanib qolishgan. Ko'pincha kichik rasmiy sektor odatda soliq majburiyatlarini bajarishda katta moliyaviy va vaqt muammolariga duch keladi. Bu kabi muammolar investitsiyalar va rasmiy iqtisodiyotda ishtirok etish uchun kuchli turtki yaratadi. Hukmron korxonalar soliq imtiyozlarini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan siyosiy jihatdan kuchli manfaatdor bo'lishi mumkin. Lekin, bu asnoda mikrofirmalar norasmiylikka yo'qolishi mumkin. Natijada, o'rta biznes adolatli va samarali soliq islohotlari uchun siyosiy jihatdan eng muhim tanlov sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Iqtisodchilar soliq o'zgarishi iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishda, soliq islohotisiz amalgam oshirilgan investitsiyalar darajasi bilan soliq o'zgarishi amalgam oshirilganidan keyingi investitsiyalar darajasi o'rtasidagi farqni tahlil qilishni afzal ko'rishadi. Bu farq soliq siyosatining iqtisodiy o'sish va investitsiyalarga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi.

Xoll va Yorgenson (1969) larning ishlarida investitsiyalar darajasini tushuntirishda mualliflar ikkita asosiy ko'rsatkichdan foydalanadilar: soliqlarga bog'liq bo'lgan kapitaldan foydalanish xarajatlari va iqtisodiyotning ishlab chiqarish darajasi. Bunda soliq tizimidagi o'zgarishlarning ishlab chiqarishga ta'siri hisobga olinmaydi: ishlab chiqarish modellashtirilmaydi, u ekzogen o'zgaruvchi deb tan olingan. Ular o'z ishlarining xulosasiga ko'ra, daromad solig'ini kamaytirish investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, soliq siyosati investitsion jozibadorlikni oshirishning asosidir. Ushbu omilni har tomonlama o'rganish uchun soliqlarning investitsiya jozibadorligiga ta'sirini o'lhash va ushbu jarayonga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jihatlarni hisobga olish kerak. Ma'lumki, soliq siyosati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili, eng daromadli tarmog'i hisoblanadi.

Soliq tizimidagi quyidagi ikki jihat ketma-ketligi na iqtisodiyot uchun daromad manbai bo'lgan soliqlarning kamayishiga olib kelmasligi va na investitsiya jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Salbiy jihatning paydo bo'lishi ushbu mamlakatga sarmoya kiritishi mumkin bo'lgan xorijiy investorlarning fikrini o'zgartirishiga olib kelishi mumkin:

Birinchidan, davlat soliq qonunchiligi talablariga javob beradigan va investorlar manfaatlariga soya solmaydigan soliq mexanizmini joriy qilishi kerak. Soliq stavkalarini belgilash davlat g'aznasini to'ldirish orqali nafaqat investitsiya jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki shu bilan birga, investitsiya oqimini ta'minlash nuqtai nazaridan ham, iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan ham o'zining rivojlanish xususiyatini yo'qotmasligi kerak.

Ikkinchi asosiy omil - soliq siyosati aniq va maqsadli bo'lishi kerak. Investitsiya qiluvchi tadbirkorlar keljakda soliq siyosatining o'zgarishi ehtimolini hisobga oladi. Shu nuqtai nazaridan, mamlakat soliq tizimining tez-tez o'zgarishi salbiy holat sifatida baholanishi va investor manfaatlariga mos kelmasligi mumkin.

Investorlar o'rganishlari kerak bo'lgan asosiy masalalardan biri ular sarmoya kiritadigan mamlakatlarning soliq siyosati bo'lishi kerak, chunki bu davlatning soliq siyosati ularning investitsiyalarining asosini tashkil qiladi. Soliq stavkalarini oshirish ko'p jihatdan investitsion jozibadorlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Soliq stavkalarining oshishi investitsiya kiritgan investorlarning sof foydasini pasaytiradi va shu bilan potensial investitsiyalarga qo'yilgan mablag'larni kamaytiradi. Natijada yangi investitsiya imkoniyatlari va investitsiya sohalari qisqaradi.

2. Soliq stavkalarining oshishi bilan sarmoya kiritgan tadbirkorlar oladigan sof foyda foizi jiddiy ravishda pasayib boradi, investitsiya muhiti jozibadorligi pasayadi, investorlar muqobil investitsiya yo'nalishlarini yoki boshqa mos variantlarni ko'rib chiqishni afzal ko'radi.

Ba'zi hollarda soliqlarni oshirish o'sha mamlakat infratuzilmasi va ijtimoiy dasturlari va loyihalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin va shu orqali investitsiya jozibadorligini rivojlantirishga hissa qo'shami, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Har bir davlat iqtisodiy rivojlanish dinamikasini oshirishni istasa, soliq siyosatini to'g'ri tartibga solish, investorlarni jalb etish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali savdo munosabatlarini yuqori darajada ushlab turishi kerak.

Soliq siyosati investitsion jozibadorlikka bevosita ta'sir qiladi. Agar biron-bir davlatda soliq stavkalari yuqori bo'lsa, u yerdagi investitsiyalarning jozibadorligi pasayadi va investorlar boshqa muqobil variantlarni ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Investitsion jozibadorlikni

oshirishning asosiy elementlari soliq imtiyozlari va soliq imtiyozlari kabi afzalliklar bilan ta'minlashi mumkin.

Investitsion jozibadorlikni oshirishda soliq imtiyozlarini qo'llash alohida ahamiyatga ega. Iqtsodchi olim Yoram Margalios (2003) ta'kidlashicha, to'g'ri ishlab chiqilgan va joriy etilgan soliq imtiyozlari investitsiyalarni jalb etishda imkoniyatlar yaratса va shu orqali bozor mexanizmini tartibga solib, ijobjiy natija ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi va soliq imtiyozlarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga qo'llash maqbul deb hisoblaydi.

Hukumat tomonidan soliq imtiyozlarni berish muqobil variant sifatida ko'rish bezizga emas. Chunki iqtisodiyotdagi muhitni keskin yaxshilash yoki huquqiy tizimdagи kamchiliklarni tuzatishdan ko'ra soliq imtiyozlarini berish ancha oson. Bundan tashqari soliq imtiyozlarini va shu kabi muqobil variantlar hukumat tomonidan mablag' sarf qilinishini talab qilmaydi. Soliq imtiyozlarini hukumat uchun iqtisodiy xarajat nuqtai nazaridan o'xshash bo'lsa-da, siyosiy va boshqa sabablarga ko'ra, investorlarga pul mablag'larini berishdan ko'ra soliq imtiyozlarini berish afzal. Shuningdek, ko'pgina mamlakatlarda, soliq imtiyozlarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – kapitalning ko'payishi, yangi texnologiya, bandlikni ta'minlash va rivojlanish darajasi past hududlar sharoitni yaxshilash uchun amalga oshirilgan investitsiyalarga beriladi.

Xulosa va takifflar.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, soliq siyosati va investitsion jozibadorlik o'zaro muvozanatli va strategik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Soliq yukining optimal darajasini belgilash, barqaror va prognoz qilinadigan soliq tizimini shakllantirish, maqsadli soliq imtiyozlarini orqali investitsiyalarni rag'batlantirish, shuningdek, huquqiy va institutsional infratuzilmani mustahkamlash orqali davlat investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati shakllantirilayotgan va takomillashtirilayotgan jarayonda quyidagi strategik tamoyillarga asoslanishi lozim:

- ✓ uzoq muddatli barqarorlik – soliqlarga oid o'zgarishlar oldindan aniq belgilangan strategik rejalar asosida amalga oshirilishi kerak;
- ✓ tadbirkorlikni rag'batlantirish – kichik va o'rta bizneslar uchun soddalashtirilgan soliq mexanizmlari joriy qilinishi zarur;
- ✓ soliq yukining differensial yondashuvi – strategik muhim tarmoqlarga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun maqsadli soliq imtiyozlarini berilishi mumkin;
- ✓ raqobatbardosh soliq muhiti – O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro investitsion raqobat sharoitida soliq siyosatini investorlar uchun quay shakllantirishga intilishi kerak.

Natijada, soliq siyosatining aniq va samarali yuritilishi mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investorlar uchun jozibador bo'lgan iqtisodiy muhitni yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Alexander Trepelkov, Marcio Verdi (2018). *Design and assessment of tax incentives in developing countries selected issues and a country experience*

Becker, G. S. (1962). *Investment in human capital: A theoretical analysis. Journal of political economy*, 70(5, Part 2), 9-49.

Сердюков А.Э., Вылкова Е.С., Тарасевич А.Л. (2005) *Налоги и налогообложение: Учебник для вузов.* –СПб: Питер, 752 с.

Hall R. E., Jorgenson D. W. (1969) *Tax Policy and Investment Behavior: Reply and Further Results. The American Economic Review*, vol. 59, no. 3, pp. 388–401.

Isayev F.I. (2023) *Soliq tahlili – iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi. Monografiya. T: "IQTISODIYOT". 222 bet.*

Lester, R., & Olbert, M. (2024). *Firms' Real and Reporting Responses to Taxation: A Review. Available at SSRN 4779893.*

Linking business tax reform with government. Investment climate in practice.
<https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/490c6998-06f2-107-bd4c-3bafe2dc38d2/content>

OECD. (n.d.). Tax policy. [online] Available at: <https://www.oecd.org/en/topics/tax-policy.html>. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti rasmiy sayti.

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

S. Djankov, T. Ganser, C. McLiesh, R. Ramalho, A. Shleifer (2010) The effect of corporate taxes on investment and entrepreneurship. Am. Econ. J. Macroecon., pp. 31-64

Vartia, L. (2008), "How do Taxes Affect Investment and Productivity?: An Industry-Level Analysis of OECD Countries", OECD Economics Department Working Papers, No. 656, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/230022721067>.

Xixin Dai, Jian Hou, Xing Li, Industry policy, cross-region investment, and enterprise investment efficiency, Research in International Business and Finance, Volume 56, 2021, 101372, ISSN 0275-5319,

Yoram Y. Margalioth (2003) Tax competition, foreign direct investments and growth: using the tax system to promote developing countries, Virginia Tax Review, vol. 23, issue 1.

Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А. (2004) Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 167 с.

Бланк И. А. (2013) Основы инвестиционного менеджмента. М.: Юрайт, 480 с.

Валинуров Т.Р. (2010) Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные научноемкие технологии» №1.

Валинурова Л. С., Казакова О. Б. (2010) Управление инвестиционной деятельностью: учебник. М.: КНОРУС, 384 с.

Гиляровская Л. Т. (2012) Экономический анализ: учебник для вузов. 2-е изд., доп. М.:ЮНИТИ-ДАНА, 423 с.

Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 477 с. 2001.

Пансков В.Г. (2006) Налоги и налогообложение в Российской Федерации: Учебник для вузов. – 7-е изд, доп. И перераб. – М.: МЦФЭР, 592 с.

Радченко С.М. (2005) Налогообложение - Нижний Тагил: НТИ(ф)ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 92 с.

Ройzman И.И., Гришина И.В. (1998) Сложившаяся перспективная инвестиционная привлекательность крупнейших отраслей отечественной промышленности // Инвестиции в России. № 1. С. 37-39.

Ростиславов Р.А. (2010) Инвестиционная привлекательность предприятия и факторы влияющие на нее // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки, № 2.

Ростиславов Р.А. (2010) Инвестиционная привлекательность предприятия и факторы влияющие на нее // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки, №2.